RAHBAR SHAXSIGA QO'YILADIGAN PSIXOLOGIK TALABLAR TAHLILI

Ro'zimbetova Ro'zaxon

ruzaxonruzimbetova@gmail.com

Qoraqalpoq Davlat Universiteti, psixologiya yo'nalishi birinchi bosqich magistranti

Annotatsiya*:*Mazkur maqolada bugungi kunda rahbarga qo'yiladigan psixologik talablar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada rahbarning shaxsiy hususiyatlari,emotsional holati,xodimlar bilan muloqotda va boshqaruv tizimida talab qilinadigan psixologik qobiliyati aks ettiriladi.

Kalit so'zlar: Rahbarlik faoliyati, intellekt, emotsional holati, liderlik, kommunikatsiya, motivatsiya.

Zamonaviy jamiyatda,yashar ekanmiz bugungi kunning rahbari ham zamonaviy ko'z qarashga ega inson bo'lmog'i lozim.Globallashuv,raqamli iqtisodiyot tezkorlik ustuvor bo'lgan bugungi kunda rahbardan faqatgina tajriba,bilim talab etib qolmasdan psixologik bilimlarni ham talab qilmoqda.Boshqaruv tizimida rahbar keng qamrovli psixologik kompetentsiyalarga ham ega bo'lishi zarur.Ayniqsa jamoada sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni yaratish,nizolarni samarali hal etish va xodimlarning ichki salohiyatini yuzaga chiqarish rahbarning asosiy vazifalaridan biri siafatida qaraladi.Shu sababli bugungi kunda rahbarga qo'yiladigan psixologik talablarni o'rganish dolzarbdir.

Psixologiya fanining asoschilaridan biri E.G'oziyev (2010) takidlaganidek shaxsning psixologik xususiyatlari uning faoliyat samaradorligini bevosita belgilab turadi.Bu tamoyil boshqaruv va rahbarlik tizimida ham amal qiladi.Avvalo har bir rahbar insonlar bilan kommunikatsiyani yo'lga qo'yishi,boshqalarga ilhom bera

oladigan va eng muhimi o'zini nazorat qila oladigan shaxs bo'lmog'i kerak.

Rahbar shaxsining psixologik mohiyatiga to'xtaladigan bo'lsak,rahbar-psixologik jihatdan murakkab tizim bo'lib,unda temperament,harakter,qobiliyat,motivatsiya,emotsional holatlar o'zaro bog'liq holda namayon bo'ladi.Rahbarga quyidagicha psixologik talablar qo'yiladi:emotsional barqarorlikka ega bo'lishi,stressli va konfliktli jarayonlarda o'zini to'g'ri boshqara olishi zarur.Boshqaruv tizimidagi yuzaga keladigan muammolarga nisabatdan bardoshli bo'lib,muammoli vaziyatlarda to'g'ri yechim topa olishi lozim.Rahbarning kommunikativ qobiliyati ham yuksak bo'lishi,hodimlar bilan bo'ladigan muloqotda ularni o'ziga ishontira olishi va har qanday holatda ham odob axloq qoidalaridan va o'zining rahbarlik vakolatidan chiqmagan holda siyosat olib borishi kerak.Muloqot jarayonida ko'pchilik rahbarlar gapirishni yaxshi bilishadi ammo eshitish qobiliyatlari yaxshi bo'lmasligi mumkin.Bugungi kunda esa rahbar faol tinglashni ham yaxshi bilishi,hodimlarni o'z fikr mulohazalarini diqqat bilan eshitishi lozim.Hodimlarni o'z fikrlarini qo'rqmasdan bayon eta oladigan muhit yaratishi bu rahbarning boshqaruv jarayonida muhimdir.Empatiya jihatidan ham kuchli bo'lishi va qo'l ostida ishlovchi ishchi hodimlarni his tuyg'ularini tushunishi lozim.Rahbar hodimlarga motivatsiya bera olishi ularni yanada samarali ishlashi uchun ruhlantira olishi kerak.Qarorlarni qabul qilishda tezkorlik va to'g'rilikka urg'u qaratishi kerak bo'ladi.Qarorlarni qabul qilishda va rahbarlik faoliyatida adolatli bo'lmog'i kerak.Adolat haqida Temur tuzuklaridan ham ko’plab iqtiboslar keltirish mumkin.Masalan Temur tuzuklarida “Saltanat ishlarining to’g’ri yurishi adolatga bog’liqdir” deb keltiriladi.Bundan ko’rinib turibdiku har qanday jamiyatda va har qanday zamonda rahbarning adolatli bo’lishi muhim.Bizningcha,adolatli rahbar jamiyatda barqarorlikni ta’minlay oladi.Adolatli rahbar jamoada ishonch uyg'ota olishi,nizolarni oldini olishi,hodimlar bilan munosabatda sog’lom psixologik

muhitni yarata olishi kerak.Har bir ishda mas'uliyat bilan yondashishi va o'zining liderlik qobiliyati asosida boshqalarni ortidan egartirishni bilishi kerak.

O’zbek xalqining an’anaviy qadriyatlari-halollik,adolat,kattalarni hurmat qilish va hamjihatlik-zamonaviy psixologik liderlik tamoyillari bilan uyg’un keladi.Milliy mentalitetimizga asoslangan etik rahbarlik modeli O’zbekiston sharoitida ayniqsa samarali natija beradi.O’zbek xalqining an’anaviy qadriyatlari-halollik,adolat,kattalarni hurmatli qilish va hamjihatlik-zamonaviy psixologik liderlik tamoyillari bilan uyg’un keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak rahbar shaxsiga qo’yiladigan psixologik talablar kundan kunga ortib bormoqda.Globallashuv,iqtisodiy o’zgarishlar va raqobat muhiti sharoitida rahbar nafaqat yuqori malakali mutaxassis balki kuchli psixologik salohiyatga ega shaxs bo’lishi zarur.Erkin gapirish va demokratiya ustun bo’lgan mamlakatimizda rahbarlik faoliyatini to’g’ri olib borish muhimdir.Zamonaviy rahbar muaffaqiyatli bo’lishi uchun psixologik yetuk,kommunikativ adolatli bo’lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy Psixologiya E.G’oziyev (2010) **https://lib.adpi.uz/preview?filename=goziyeveumumiypsixologiya1kitob.pdf**

2. Temur tuzuklari (Yoshlar nashriyoti uyi) Toshkent-2018 https://lib.adpi.uz/preview?filename=temurtuzuklari.pdf

3. Boshqaruv psixologiyasi o’quv qo’llanma Toshkent 2023 https://share.google/tcyIeCK38eFB1C1wu